

## **QADIMGI XORAZMDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI**

*Rahimova Zeboxon O'ktam qizi*

*Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti*

*232-tarix guruhi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qadimgi Xorazm davlatining vujudga kelishi, sivilizatsiya, dehqonchilik madaniyatining paydo bo'lishi haqidagi tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar tahlil qilinib o'rganildi. Qadimgi Xorazmda davlatchilikning ilk dehqonchilikning rivojlanishi hisobiga paydo bo'lganligi haqida ma'lumotlar to'plandi.

**Аннотатци:** В данной статье проанализированы и изучены исследования и исследования о возникновении древнего Хорезмского государства, цивилизации, зарождении земледельческой культуры. Собраны сведения о возникновении государственности в древнем Хорезме благодаря развитию раннего.

**Annotation:** In this article, researches and researches about the emergence of the ancient Khorezm state, civilization, and the emergence of farming culture were analyzed and studied. Information was collected about the emergence of statehood in ancient Khorezm due to the development of early agriculture.

**Kalit so'zlar:** "Xorazm", "xorazmliklar", "Tolstov", "ekspiditsiya", "Ahmadali Asqarov", "Avesto", "bronza davri", "sug'orma dehqonchilik".

**Ключевые слова:** «Хорезм», «хорезмийцы», «Толстов», «экспедиция», «Ахмадали Аскарлов», «Авеста», «Бронзовый век», «орошение»

**Key words:** "Khorazm", "Khorazmians", "Tolstov", "expedition", "Ahmadali Askarov", "Avesta", "Bronze Age", "irrigation farming".

### **Kirish.**

Xorazm-o'lkamiz tarixidagi eng qadimiy sivilizatsiya markazidir. Xorazm so'zining ma'nosi, kelib chiqishi haqida ko'plab qarashlar mavjud. Shulardan Tolstovning fikrini

oladigan bo'lsak, "quyoshli o'lka", "quyoshli yer" degan ma'noni anglatadi. Xorazm o'lkamizda shakllangan eng qadimiy davlatchilik shakllangan vohadir. Qadimgi Xorazmning hududi hozirgi hududiga qaraganda juda katta joyni egallagan ulkan dehqonchilik manzilgohlaridan iborat bo'lgan. Qadimgi Xorazm davlatining hududiga hozirgi Amudaryoning quyi havzasidagi yerlar, Qoraqalpog'iston Respublikasining bir qismi, janubda esa Turkmanistonning bir qismi (Marv vohasi), Afg'onistonning shimoliy hududlari kirganligi arxeologik manbalar tasdiqlaydi.

### **Adabiyotlar tahlili:**

Qadimgi Xorazmning miloddan avvalgi VI-V-asrlardagi tarixi arxeologik va yozma manbalar asosida o'rganilgan. Qadimgi Xorazm to'g'risidagi ma'lumotlar Avestoda, Behustun, Persopol yodgorliklarida, qadimgi yunon avtorlaridan-Geradot, Arrian, Kvinsiy Ruf asarlarida saqlanib qolgan. Qadimgi Xorazm davlati tarixini arxeologik jihatdan o'rganish XX asrning 30 yillaridan boshlangan. Bunda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining orni kattadir. Xorazm tarixini o'rganishda S.P.Tolstov, M.G.Vorobva, B. Andrianov, O.Vishnevskayalar katta hissa qoshganlar. Bugungi kunda esa, Ya.Yagodin, M.Mambetullaev, G.Xodjanioyozov, S.Bolelov, S.Baratovlarning xizmatlari katta bolmoqda. Qadimgi Xorazm davlati tarixini yoritishda XX asr oxiri XXI asr boshlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu davrda Xorazm davlati tarixiga oid bir qator yangiliklar qolga kiritilgan. Bu bizning kelajak avlodning o'z vatani tarixini bilishi uchun katta ahamiyatga ega. Qadimgi Xorazm tarixi va yodgorliklari S.P.Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiyaning tadqiqotlari natijasida keng yoritilgan. Xorazmning sug'orish inshootlari va sug'orilishi tarixini o'rganishda taniqli arxeolog olim Y.G'.G'ulomov katta hissa qo'shgan. Xorazm tuprog'ida turli xil ko'hna manzilgohlar va shahar xarobalari qazib ochilgan. Hozir ham Qadimgi Xorazm tarixini o'rganish va uning arxeologik yodgorliklarini tadqiq qilish ishlariga katta e'tibor berilmoqda.[2]

**Tahlil va natijalar:** Avvalo, so'nggi yillardagi ibtidoiy davr yodgorliklarining qiyosiy tadqiqotlaridan (X.Matyoqubov) xulosa chiqaradigan bo'lsak, Xorazm miloddan

avvalgi 4-3 ming yilliklardayoq O'rta Sharqning qadimgi sivilizatsiyalar bilan uzoq shimolni bevosita bog'lovchi halqa ro'lini o'tay boshlagan. Bronza davri Suvyorgan va Tozabog'yop madaniyatlari qadimgi Xorazm yerlarini o'zlashtirib bir-biri bilan qizg'in aloqada bo'lgan, Shimol va janubdan ta'sir qabul qilib, yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan qabilalar madaniyati edi. Ularning urug' jamoalar yarim yerto'la uy-joylarda istiqomat qilib motiga dehqonchiligi va chorvachilik bilan shug'ullanib, ibtidoiy ishlab chiqarish xo'jaligi sari ilk qadam tashlaganlar. Ammo, ularning moddiy xo'jalik taraqqiyoti darajasi O'rta Osiyoning janubiy mintaqalari (Baqtriya, Marg'iyona) dagi qabilalarga nisbatan ancha orqada edi. Amirobad madaniyati (miloddan avvalgi IX-VIII asrlar) davrida Amudaryo quyi havzasida yashovchi aholi hali davlatchilikdan bexabar bo'lib, irrigatsiya xususiyati ibtidoiy urug'-qabilachilik an'alarini saqlab qolgan aholi jamiyatiga xos edi. O'rta Osiyoning janubiy mintaqalariga qaraganda Xorazm vohasi aholisi uzoq vaqt beqaror suv oqimi sharoitida, noqulay tabiat injiqliklari girdobida qolib kelgan. Qadimgi yozma manbalar ma'lumotlari va mavjud arxeologik yodgorliklarning qiyosiy tahliliga ko'ra, Xorazmda davlatchilik ildizlarining paydo bo'lishiga asos bo'lgan ilk shaharsozlik madaniyati sohiblari-xorazmiylar ko'chib kelgach tarkib topdi va rivojlandi. [3] Qadimgi Xorazmda davlatchilikning shakillanishiga doir izlanishlarda Tolstovning arxeologik tadqiqotlarini alohida aytib o'tish lozim. Qadimgi Xorazmda, uning tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyatini yaratadilar. Bu fanda Amirobod madaniyati deb nomlanadi. Keyinchalik mil.avv. 1 ming yillikning o'rtalarida dehqonchilik vohalarining qal'a-shaharlari tarkib topadi (Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Dingilji). Amirobod madaniyati so'nggi bronza davriga, mil.avv. X-VIII asrlarga oid yodgorlik bo'lib, u 1940-yilda Amudaryoning quyi xavzasidagi Amirobod kanali havzasidan topilgan. 1950-yillarga kelib, Amirobod madaniyatiga doir bir necha yodgorliklar topildi. [1] Bu kabi manbalarning topilishi Qadimgi Xorazmda miloddan avvalgi Birinchi ming yillikda qadimgi shahar-qal'adan iborat davlat mavjudligidan dalolat beradi. Xorazm bo'ylab o'tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasida Guldursun, Ko'hnavoz, Pilqal'a, Bozorqal'a,

Qo'rg'oncha qal'a, Ayozaqal'a, Tuproqqal'a, Jonbosqal'a, Qo'yqirilgan qal'a, Tuqqal'a, Guvurqal'a kabi yuzlab qadimiy shaharlar topildiki, ulardagi me'morchilik, amaliy va haykaltaroshlik san'ati beqiyos rivojlanganligidan dalolat beradi. Qadimgi Xorazm san'ati va me'morchiligi tarixi haqida «Kaltaminor», «Tozabog'yob», «Suyorg'on», «Amirobod», «Jetisor», «Kanguy», Amudaryo boyligi, madaniyati va «Beshtepa», «Qoratepa», «Arfa chaluvchi», «Yo'lbars», «Qirg'ovul»«Ot tuyog'i», «Yo'lbars panjasi», «Kohin haykali», «Odam tasviri», «Qorovul haykali», «Qizil bosh», «Vzimir qallig'i», rangli naqshlar «Rangli byust» yoki «Chirikrabort», «Qo'yqirilgan kal'a», «Ayozaqal'a», «Tuproqqal'a», «Teshikkal'a»kabi badiiy-madaniy yodgorliklari juda katta ilmiy ma'lumotlar beradi. (S.Tolstov. 1964 yil)[1]. O'rta Osiyoning janubidagi dehqonchilik madaniyati va ilk shaharlar bo'yicha mutaxassis hisoblangan A.A.Asqarov so'nggi yillarda Qadimgi Xorazm masalalariga e'tibor qaratdi.Olimning e'tirof etishicha, Xorazm vohasining qadimgi davri o'ziga xos xususiyatlarga ega.Bu hududiy kenglik Amudaryoning quyi havzasi hisoblanib,O'rta Osiyoning bu yirik daryosi bir necha yuz yillar davomida yuqori oqimlardan quyiga unumdor loyqa oqizib kelib,janubiy Orol bo'ylarida sug'orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi uchun zamin yaratgan.Ammo,bu zamin eng qadimgi davrlarda ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilib,sug'orma dehqonchilik madaniyatining Marg'iyona va Baqtriya singari makoni bo'la olmadi.Arxeologik manbalarning ma'lumot berishicha,ilk temir davriga kelib Xorazm hududlarida paydo bo'lgan Amirobod madaniyati davrida janubiy Xorazm aholisi Amudaryo quyi havzasining o'zanlari bo'ylab barpo etilgan keng va sayoz kanallar yordamida zirotchilikka qulay joylarda dehqonchilik qila boshlaydilar hamda o'troq hayot asta-sekin ularning turmush tarziga aylana boshlaydi.Ammo,Amudaryoning quyi havzalari,uning to'qayzor va qamishzor keng maydonlari, serunum yaylovlari chorvachilik xo'jaligining taraqqiy etishi uchun juda qulay edi.Shuning uchun ham Qadimgi Xorazmda Quyi Sirdaryo sak-chorvadorlarning Quysisoy madaniyati keng rivojlangan.[3]

**Xulosa.** Xorazm o'lkamizdagi eng qadimiy va tarixiy hududlardan biridir. Xorazmda yurtimiz tarixidagi eng qadimiy sivilizatsiyalar beshigidir. Olib borilgan izlanishlarim natijasida shuni aytishim mumkinki Qadimgi Xorazmda davlatchilikning shakllanishi ilk sug'orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi asosida ekanligiga amin bo'ldim. Qadimgi Xorazm uch ming yillik tarixga ega buyuk madaniy meroslarimizdan biridir. Yirik tarixshunos olimlar Xorazm hududida ilk shahar-davlatlar miloddan avvalgi VII-VI asrlarga oid Ko'zalliqir shahri xarobalarini aytishadi. Umuman Xorazm – juda qadimdan rivojlangan xalqlar yashagan o'lka bo'lib, uning xalqi eramizdan avvalgi ming yilliklardayoq o'z madaniyati, ishlab chiqarishi, fani, san'ati, mukammal dini, ma'naviy dunyosi, hatto davlatchilik siyosatiga barcha xalqlardan ilgariroq ega ekanligini to'la isbotlab bergan o'lkadir. Xorazm qadimdan sug'orma dehqonchilik, savdosotiq, chorvachilik, kulolchilik, zargarlik, binokorlik madaniyatlari asosidagi davlatchilik beshigidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ajiniyozov J.X. "Xorazm-Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida" maqolasi. // "So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-amaliy jurnali.
2. A.S. Sagdullayev "O'zbekiston tarixi" 1-qism // "Donishmand ziyosi". Toshkent 2021-yil. // 158-162-betlar.
3. Bahodir Eshov. "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi" // "Toshkent" 2012-yil. 51-52-betlar.
4. N.A. Egamberdiyeva. "Arxeologiya" // 2011-yil. 90-91-betlar.